**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI**
**ILMIY DARAJA BERUVCHI**
**PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**NURIDDINOV JAVLON ZAFAROVICH**

# O‘RAMA KO‘RINISHIDAGI INTEGRO - DIFFERENSIAL ISSIQLIK O‘TKAZUVCHANLIK TENGLAMASI UCHUN TESKARI MASALALAR

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2021**

**UDK: 517.958**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI**
**ILMIY DARAJA BERUVCHI**
**PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**NURIDDINOV JAVLON ZAFAROVICH**

# O‘RAMA KO‘RINISHIDAGI INTEGRO - DIFFERENSIAL ISSIQLIK O‘TKAZUVCHANLIK TENGLAMASI UCHUN TESKARI MASALALAR

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika**

**Fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2021**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/FM433 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti va V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Buxoro bo'linmasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ik-mat.urdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Durdiyev Durdimurod Qalandarovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Xasanov Aknazar Bekdurdiyevich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Djamalov Sirojiddin Zuxriddinovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 raqamli Ilmiy kengashning «06» 09 2021 yil soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-66-11, faks: (+99862) 224-67-00; e-mail: ik_mat.urdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D-265 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-66-11; faks: (99862) 224-67-00).

Dissertatsiya avtoreferati 2021 yil «20» 09 kuni tarqatildi.
(2021 yil «20» 09 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

**B.I.Abdullaev**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d.

**A.A. Atamuratov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n.

**S.A.Imomqulov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.

**KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar xususiy hosilali differensial va integro–differensial tenglamalar, ular uchun qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari masalalarni o‘rganishga olib kelinadi. Teskari masalalar astronomiyaga, kvantlarning tarqalishi nazariyasiga, geofizikaga, issiqlik fizikasiga, tibbiyotga, hamda EHM paydo bo‘lishi bilan zamonaviy ilm–fanning barcha sohalariga kirib bordi. Matematik fizikada to‘g‘ri masalalarning yechimini topish uchun tenglamaning koeffitsiyentlarini, soha chegarasini, boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni berish lozim. Ammo amaliyotda tenglama koeffitsiyentlarini har doim ham berib bo‘lmaydi. Har doim ham tadbiqiy masalalarda boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni, shuningdek, soha chegarasini aniqlab bo‘lmaydi. Bunday hollarda, to‘g‘ri masala yechimiga nisbatan qo‘shimcha ma’lumot kiritib, teskari masala yechimini izlash, ya’ni koeffitsiyentlar, integro–differensial tenglama holida integral had yadrosi, boshlang‘ich yoki chegaraviy shartlar, soha chegarasini topish zarurati paydo bo‘ladi. Bu kabi masalalarni yechish usullarining to‘la shakllanmaganligi bois integro–differensial issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasidan yadroni aniqlash teskari masalalarini yechish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahon miqyosida matematik fizikaning eng tez rivojlanayotgan sohasi – teskari masalalarni tadqiq qilish usullariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu soha fizika va texnika fanlaridagi eng muhim matematik muammolardan biriga aylandi. Ushbu muammoning juda keng doirada qo‘llanilishi, uning nazariyasining yangiligi va murakkabligi sababli ko‘plab olimlarning e’tiborini tortdi. So‘nggi yillarda issiqlik tarqalish jarayonlarini boshqarish jadal rivojlanmoqda, chunki har bir muhitning issiqlik o‘tkazuvchanligi va relaksatsiya funksiyasi turlicha bo‘lib, bu kattaliklar muhitning boshlang‘ich holatiga va xossalariga chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli integro–differensial issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamalari uchun boshlang‘ich, boshlang‘ich-chegaraviy masalalar hamda ularga qo‘yilgan teskari masalalarni o‘rganish maqsadli ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan matematik fizikaning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi. Bu borada parabolik tipdagi integro–differensial tenglamalardan relaksatsiya funksiyasini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarni tadqiq etishga e’tibor qaratildi. Ushbu izlanishlar natijasida o‘zgaruvchan koeffitsiyentli parabolik tipdagi integro–differensial tenglamalar uchun teskari masalalar yechimining mavjudligi va yagonaligini isbotlashga erishildi. Differensial tenglama va matematik fizika fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifa etib belgilandi[1]. Bu qaror ijrosini ta’minlashda matematik fizikaning integro–differensial

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 iyuldagi «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4387-son qarori.

tenglamalar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida» Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» va 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Matematik fizikaning teskari masalalari nazariyasini rivojlantirishga A.S. Alekseev, M.M. Lavrentev, V.G. Romanov, A. Lorenzi va boshqalar oʻz hissalarini qoʻshganlar. Parabolik tipdagi tenglamalar uchun teskari masalalar V.G. Romanov, A.I. Prilepko, A.D. Iskendarov, N.Ya. Beznoshenko, F.A. Kolombo, Ya. Yannolar tomonidan qoʻyilgan va tadqiq qilingan. Parabolik tipdagi integro-differensial tenglamalardan integral hadi yadrosini aniqlash boʻyicha teskari masalalarni tadqiq etishning turli usullari L.V. Lorensi, M. Graselli, Ya. Yanno, F.A. Kolombo, D.K. Durdiyev va boshqalarning ishlarida taklif etilgan va rivojlantirilgan. Jumladan, N.Ya. Beznoshenkoning[2] ishida parabolik tipdagi tenglamalar uchun oʻzgaruvchan koeffitsiyentni aniqlash boʻyicha teskari masalalar tadqiq qilingan. A.I. Prilepko, A.B. Kostin[3] maqolasida oʻzgaruvchan koeffitsiyentli parabolik tipdagi boshlangʻich-chegaraviy masalalardan tenglamaning koeffitsiyentlarini aniqlash teskari masalasi tadqiq etilgan, yechimning mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremalar isbotlangan. A.D. Iskendarov tadqiqotlarida bu kabi tenglama koeffitsiyentlarini aniqlashning analitik va sonli usullari taklif etilgan. Ya. Yanno, L.V. Volfersdorf[4] ishida chegaralangan sohada integro–differensial issiqlik oʻtkazuvchanlik tenglamasi uchun integral hadi yadrosini aniqlash boʻyicha bir oʻlchamli teskari masala qaralgan va yechimning mavjudligi, yagonaligi isbotlangan hamda turgʻunlik baholari olingan.

Ushbu dissertatsiya ishida oʻzgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik oʻtkazuvchanlik tenglamasi uchun koʻp oʻlchamli toʻgʻri va teskari

---

[2]Н. Я. Безнощенко, Об определении коэффициента в параболическом уравнении, Дифференц. уравнения, 1974, том 10, номер 1, 24-35.

[3] Prilepko A.I., Kostin A.B. On inverse problems of determining a coefficient in parabolic equation // Siberian Math. J., 1993, vol. 34, №5, pp. 923-937.

[4] Janno J., Wolfersdorf L.V. Inverse problems for identification of memory kernels in heat flow // Ill-Posed Problems, 1996, vol. 4, №1, pp. 39–66.

masalalarning bir qiymatli yechiluvchanlik muammolari Gyolder (Hölder) fazolarida oʻrganilgan. Bunda V.G. Romanov, Ya. Yanno, L.V. Volfersdorf va D.Q. Durdiyevlarning ilmiy tadqiqotlari masalalarning qoʻyilishi jihatidan yaqin va tadqiq etishda ular tomonidan tavsiya etilgan usullardan foydalanilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining rejalashtirilgan tadqiqot mavzusiga muvofiq amalga oshirildi. Buxoro davlat universitetining F-4-02 "Matematik fizikaning holatlar toʻplami cheksiz boʻlgan modellari termodinamikasi" mavzusidagi grant loyihasi doirasida bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Oʻzgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik oʻtkazuvchanlik tenglamasi uchun koʻp oʻlchamli toʻgʻri va teskari masalalarning Gyolder (Hölder) fazolarida bir qiymatli yechiluvchanlik masalalarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

oʻzgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qoʻyilgan Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligini aniqlash;

toʻgʻri masala yechimiga qoʻyilgan qoʻshimcha shartdan foydalanib, koʻp oʻlchamli yadroni Gyolder (Hölder) fazolarida bir qiymatli yechiluvchanligini tadqiq etish;

issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasidan koʻp oʻlchamli ajralgan yadroni aniqlash masalasining bir qiymatli yechiluvchanligini Gyolder (Hölder) fazolarida koʻrsatish;

oʻzgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik tarqalish tenglamasidan maxsus koʻrinishga ega koʻp oʻlchamli yadroni aniqlash teskari masalasi yechimining yagonaligini tadqiq etish.

**Tadqiqotning ob’ekti** ikkinchi tartibli parabolik tipdagi integro–differensial tenglamalardan iborat.

**Tadqiqotning predmeti** oʻrama koʻrinishidagi oʻzgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik oʻtkazuvchanlik tenglamasi uchun koʻp oʻlchamli toʻgʻri va teskari masalalar.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada xususiy hosilali differensial tenglamalar va integral tenglamalar nazariyasi, shuningdek, funksional analiz metodlaridan xususan Volterra tipidagi ikkinchi tur chiziqli boʻlmagan integral tenglamalar sistemasini yechish, ketma-ket yaqinlashish, siqiluvchan akslantirish prinsipi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oʻzgaruvchan koeffitsiyentli ikkinchi tartibli integro–differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qoʻyilgan Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi koʻrsatilgan;

toʻgʻri masala yechimiga nisbatan berilgan qoʻshimcha shartdan foydalanib, koʻp oʻlchamli yadroni Gyolder fazolarida bir qiymatli yechiluvchanligi isbotlangan;

issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasidan ko‘p o‘lchamli ajralgan yadroni aniqlash masalasining bir qiymatli yechiluvchanligi Gyolder (Hölder) fazolarida ko‘rsatilgan;

o‘zgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik tarqalish tenglamasidan maxsus ko‘rinishga ega ko‘p o‘lchamli yadroni aniqlash teskari masalasi yechimining yagonaligi ko‘rsatilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o‘zgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik tarqalish tenglamasidan relaksatsiya funksiyasining mavjudlik va yagonalik shartlari topilgan;

integro–differensial issiqlik tarqalish tenglamasidan maxsus ko‘rinishga ega ko‘p o‘lchamli yadroni aniqlash teskari masalasining bir qiymatli yechiluvchanligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** differensial va integral tenglamalar nazariyasi, teskari masalalar nazariyasi, matematik analiz usullari qo‘llanilganligi, hamda, isbotlar va matematik mulohazalarning qat’iyligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati matematik fizikaning integro–differensial tenglamalari uchun teskari masalalar nazariyasini yanada rivojlantirishi, ko‘p o‘lchamli yadroni aniqlash usullari qurilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati seysmologiyada, neft va gaz konlarini qidirishda, issiqlik o‘tkazuvchi xotirali muhitlarda issiqlik tarqalish jarayonlarini tekshirishda tadbiq etilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamalari uchun teskari masalalarga oid ilmiy natijalar asosida:

o‘zgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik tarqalish tenglamasidan relaksatsiya funksiyasini aniqlashning taklif etilgan usulidan Ф-4-14 «Suyuqlik oquvchi yer osti egri chiziqli quvurning tashqi kuchlari ta’siridagi kuchlanish–deformatsiyalar holatini tadqiq qilish nazariyasini rivojlantirish va hisoblash usullarini ishlab chiqish» mavzusidagi fundamental loyihada issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasidan yadroni aniqlash masalalarida foydalanilgan (Buxoro muhandislik-texnologiya institutining 2021 yil 18-maydagi 83-10/974-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi o‘zgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasi uchun teskari masaladan ko‘p o‘lchamli yadroni bir qiymatli yechiluvchanligini o‘rganish, issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasidan ko‘p o‘lchamli ajralgan yadroni aniqlash masalasining yechiluvchanligini o‘rganish imkonini bergan;

teskari masalalarni tadqiq etishning taklif etilgan usulidan АААА-А19-119032590069-3 «Geofizik va muhandislik masallarida issiqlik vazn almashish va qattiq muhitlar mexanikasi masalalarini sonli yechish va matematik modellashtirish» mavzudagi xorijiy grantda ko‘p o‘lchamli integro–differensial issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi uchun teskari masalalarni tadqiq etishda foydalanilgan (Южный

Математический Институт филиал ФГНБУ ФНЦ «Владикавказский научный центр РАН», 2021 yil 19 maydagi 37-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qoʻllanilishi integro–differensial issiqlik oʻtkazuvchanlik tenglamalari uchun koʻp oʻlchamli teskari masalalarning yechiluvchanligini isbotlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatida 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 96 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, muammoning oʻrganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Oʻzgaruvchan koeffitsiyentli issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasi uchun qoʻyilgan toʻgʻri va teskari masalalar”** deb nomlanib oʻzgaruvchan koeffitsiyentli issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasi uchun qoʻyilgan toʻgʻri va teskari masala yechimining mavjudligi va yagonaligi oʻrganilgan. Bu bobning birinchi paragrafida dissertatsiyada foydalanilgan umumiy tushunchalar keltirilgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida oʻzgaruvchan koeffitsiyentli issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasi uchun qoʻyilgan toʻgʻri masala yechimining mavjudligi va yagonaligi oʻrganilgan.

$u(x,t)$, funksiyani $(x,t)\in\mathbb{R}^n_T$ sohada quyidagi tenglamalardan aniqlash masalasini qaraymiz:

$$u_t - a(t)\Delta u = \int_0^t k\,(x',\tau)u(x,t-\tau)d\tau, (x,t)\in\mathbb{R}^n_T, \tag{1}$$

$$u|_{t=0} = \varphi(x), x\in\mathbb{R}^n, \tag{2}$$

bu yerda $\Delta := \sum_{i=1}^n \frac{\partial^2}{\partial x_i^2}$ -Laplas operatori $\mathbb{R}^n_T = \{(x,t)|x=(x',x_n)\in\mathbb{R}^n, 0<t\le T\}$, $T>0$ tayinlangan ixtiyoriy son, $a(t)\in E := \{a(t)\in C^1[0,T], 0<a_0\le a(t)\le a_1<$

$\infty\}$.

**1-Ta'rif.** *Agar ixtiyoriy* $x_1, x_2 \in \mathbb{R}^n$ *uchun*

$$|f(x_1) - f(x_2)| \le A|x_1 - x_2|^l, \qquad A = const > 0, \qquad l \in (0,1) \tag{3}$$

*tengsizlik bajarilsa,* $f(x)$ *funksiya* $\mathbb{R}^n$ *da* $l$ *ko'rsatkichli Gyolder shartini qanoatlantiradi deyiladi va (3) shartni qanoatlantiruvchi funksiyalar sinfi* $H^l(\mathbb{R}^n)$ *kabi belgilanadi.*

Xuddi shunday ko'p o'zgaruvchili funksiyalar uchun ham Gyolder funksiyalar sinfiga ta'rif berish mumkin.

**2-Ta'rif** *Agar ixtiyoriy* $\left(x^{(1)}, t_1\right), \left(x^{(2)}, t_2\right) \in \mathbb{R}_T^n$, $x^{(1)} = (x_1^{(1)}, x_2^{(1)}, \dots, x_n^{(1)})$, $x^{(2)} = (x_1^{(2)}, x_2^{(2)}, \dots, x_n^{(2)})$ *uchun*

$$\left|f(x^{(1)}, t_1) - f(x^{(2)}, t_2)\right| \le \sum_{i=1}^{n} A_i |x_i^{(1)} - x_i^{(2)}|^l + A_{n+1}|t_1 - t_2|^{l/2}$$

$$A_i = const > 0, \;\; i = 1,2, \dots n+1. \;\; l \in (0,1) \tag{4}$$

*tengsizlik bajarilsa,* $f(x,t)$ *funksiya* $\mathbb{R}_T^n$ *da* $l, l/2$ *ko'rsatkichli Gyolder shartini qanoatlantiradi deyiladi va (4) shartni qanoatlantiruvchi funksiyalar sinfi* $H^{l,l/2}(\mathbb{R}_T^n)$ *kabi belgilanadi.*

Agar $\varphi(x) \in H^l(\mathbb{R}^n)$, $f(x,t) \in H^{l,l/2}(\mathbb{R}_T^n)$ bo'lsa, $H^{l+m}(\mathbb{R}^n)$, $H^{l+m,(l+m)/2}(\mathbb{R}_T^n)$ fazolardagi normalar quyidagicha aniqlanadi:

$$|\varphi|^{l+m} = \sum_{|\alpha| \le m} \sup_{x \in \mathbb{R}^n} |D^\alpha \varphi| + \sum_{|\alpha| = m} \sup_{\substack{|x^1 - x^2| \le \rho_0 \\ x^1, x^2 \in \mathbb{R}^n}} \frac{|D^\alpha \varphi(x^1) - D^\alpha \varphi(x^2)|}{|x^1 - x^2|^l},$$

$$|f|_T^{l+m,(l+m)/2} = \sum_{2r+|s| \le m} \sup_{(x,t) \in \mathbb{R}_T^n} |\, D^r D^s f| +$$

$$+ \sum_{2r+|s| = m} \sup_{\substack{|x^1 - x^2| \le \rho_0 \\ (x,t) \in \mathbb{R}_T^n}} \frac{|D^r D^s f(x^1, t) - D^r D^s f(x^2, t)|}{|x^1 - x^2|^l} +$$

$$+ \sum_{2r+|s| = m} \sup_{\substack{|t_1 - t_2| \le \rho_1 \\ (x,t) \in \mathbb{R}_T^n}} \frac{|D^r D^s f(x, t_1) - D^r D^s f(x, t_2)|}{|t_1 - t_2|^{l/2}},$$

bu yerda $\rho_0, \rho_1 > 0$.

Berilgan $a$ va $k$ funksiyalar uchun (1) integro–differensial tenglamadan $u(x,t)$ funksiyani (2) boshlang'ich shart orqali topish masalasiga Koshi (to'g'ri) masalasi deyiladi.

(1) va (2) Koshi masalasining yechimini Puasson formulasidan foydalanib quyidagi ikkinchi tur Volterra tipidagi integral tenglamaga ekvivalent bo'lishi ko'rsatilgan

$$u(x,t)=\int\limits_{\mathbb{R}^n}\varphi(\xi)G(x-\xi;\theta(t))d\xi+\int\limits_0^{\theta(t)}\frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))}\times$$

$$\times\int\limits_{\mathbb{R}^n}\int\limits_0^{\theta^{-1}(\tau)}k(\xi',\alpha)u(\xi,\theta^{-1}(\tau)-\alpha)G(x-\xi;\theta(t)-\tau)d\alpha d\xi, \qquad (5)$$

bu yerda $\theta(t)=\int_0^t a(s)ds$, $\theta^{-1}(t)$ funksiya $\theta(t)$ ning teskari funksiyasi, $G(x-\xi;\theta(t)-\tau)=\frac{1}{(2\sqrt{\pi(\theta(t)-\tau)})^n}e^{-\frac{|x-\xi|^2}{4(\theta(t)-\tau)}}$ esa $\frac{\partial}{\partial t}-a(t)\Delta$ o‘zgaruvchan koeffitsiyentli differensial operatorining fundamental yechimi bo‘lib, $|x|^2=x_1^2+\cdots+x_n^2$.

**1-Lemma.** *Faraz qilaylik,* $\varphi(x)\in H^{l+2}(\mathbb{R}^n), k(x',t)\in H^{l,l/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1})$ *va* $a(t)\in E$ *bo‘lsin. U holda (5) integral tenglamaning* $H^{l+2,(l+2)/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^n)$ *sinfga qarashli yagona* $u(x,t)$ *yechimi mavjud.*

Birinchi bobning uchinchi paragrafida o‘zgaruvchan koeffitsiyentli issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasi uchun qo‘yilgan teskari masala o‘rganilgan.

Ushbu paragrafda $u(x,t)$ funksiya bilan birgalikda (1) integro–differensial tenglamadan $k(x',t)$ funksiyani topish masalasi qaraladi. Buning uchun quyidagi qo‘shimcha shart kiritamiz:

$$u|_{x_n=0}=f(x',t), \qquad (x',t)\in\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1}, \qquad (6)$$

bu yerda $f(x',t)\in H^{l+4,(l+4)/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1})$ berilgan funksiya.

(1), (2), (6) masaladan $u(x,t)$ va $k(x',t)$ funksiyalarni topish masalasiga teskari masala deb ataladi.

(1), (2) tengliklarni $x_n$ bo‘yicha ikki marta differensiallab $\vartheta(x,t)=u_{x_nx_n}(x,t)$ belgilash kiritilsa, u holda (1), (2) masala quyidagicha ko‘rinishni oladi:

$$\vartheta_t-a(t)\Delta\vartheta=\int\limits_0^t k(x',\tau)\vartheta(x,t-\tau)d\tau, \qquad (7)$$

$$\vartheta|_{t=0}=\varphi_{x_nx_n}(x), \qquad (8)$$

$\vartheta(x,t)$ funksiya uchun $x_n=0$ dagi qo‘shimcha shart (1) va (6) dan foydalanib hosil qilingan:

$$\vartheta|_{x_n=0}=\frac{1}{a(t)}f_t-\sum_{k=1}^{n-1}\frac{\partial^2}{\partial x_k^2}f-\frac{1}{a(t)}\int\limits_0^t k(x',\tau)f(x',t-\tau)d\tau. \qquad (9)$$

(8) boshlang‘ich shart va (9) qo‘shimcha shartlardan quyidagi kelishuvchanlik sharti kelib chiqadi:

$$\varphi_{x_n x_n}(x',0)=\frac{1}{a(0)}f_t(x',0)-\sum_{i=1}^{n-1} f_{x_i x_i}(x',0). \tag{10}$$

(7), (9) tenglamalarni $t$ bo‘yicha bir marta differensiallab va $\vartheta_t(x,t)=\omega(x,t)$ belgilash kiritilsa, natijada (7), (8) va quyidagi

$$\omega_t - a(t)\Delta\omega = (\ln\, a(t))'\omega - (\ln\, a(t))'\int_0^t k(x',\tau)\vartheta(x,t-\tau)d\tau +$$

$$+\int_0^t k(x',\tau)\omega(x,t-\tau)d\tau + k(x',t)\varphi_{x_n x_n}(x), \tag{11}$$

$$\omega|_{t=0} = a(0)\Delta\varphi_{x_n x_n}(x), \tag{12}$$

$$\omega|_{x_n=0} = -\frac{a'(t)}{a^2(t)}f_t + \frac{1}{a(t)}f_{tt} - \sum_{k=1}^{n-1}\frac{\partial^2}{\partial x_k^2}f_t + \frac{a'(t)}{a^2(t)}\int_0^t k(x',\tau)f(x',t-\tau)d\tau -$$

$$-\frac{1}{a(t)}\int_0^t k(x',\tau)f_t(x',t-\tau)d\tau - \frac{1}{a(t)}k(x',t)\varphi(x',0) \tag{13}$$

tenglamalardan $\vartheta(x,t), k(x',t), \omega(x,t)$ funksiyalarni topish masalasiga keladi.

**2-Lemma.** *Faraz qilaylik* $\varphi(x)\in H^{l+6}(\mathbb{R}^n)$, $f(x',t)\in H^{l+4,(l+4)/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1})$ *va* $a(t)\in E$ *shartlar bajarilsin. Bundan tashqari*

$$f(x',0)=\varphi(x',0), \qquad \varphi_{x_n x_n}(x',0)=\frac{1}{a(0)}f_t(x',0)-\sum_{i=1}^{n-1} f_{x_i x_i}(x',0)$$

*kelishuvchanlik shartlari ham o‘rinli bo‘lsin. U holda (1), (2), (6) teskari masala (7)-(9) va (11)-(13) tenglamalardan* $\vartheta(x,t)$, $k(x',t)$, $\omega(x,t)$ *funksiyalarni topishga ekvivalent.*

Ushbu paragrafning asosiy natijasi sifatida quyidagi mavjudlik va yagonalik teoremasi isbotlangan:

**1-Teorema.** *Faraz qilaylik* $a(t)\in E$, $f(x',t)\in H^{l+4,(l+4)/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1})$, $\varphi(x)\in H^{l+6}(\mathbb{R}^n)$ *funksiyalar sinfiga qarashli bo‘lib,*

$$f(x',0)=\varphi(x',0), \qquad \varphi_{x_n x_n}(x',0)=\frac{1}{a(0)}f_t(x',0)-\sum_{i=1}^{n-1} f_{x_i x_i}(x',0)$$

*kelishuvchanlik shartlari bajarilsin. U holda shunday yetarlicha kichik musbat* $T_0>0$ *soni mavjudki,* $T\in(0,T_0]$ *lar uchun (1), (2), (6) teskari masalaning* $u(x,t)\in H^{l+2,(l+2)/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^{n})$, $k(x',t)\in H^{l,l/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1})$ *yechimi mavjud va yagona.*

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasidan ko‘p o‘lchamli ajralgan yadroni aniqlash masalasi”** deb nomlangan.

Birinchi paragrafda o‘zgaruvchan koeffitsiyentli ko‘p o‘lchamli, ajralgan yadroli, ya’ni $\boldsymbol{K(x,t)=h(x_n)k(x',t)}$, $\boldsymbol{x'=(x_1,\dots,x_{n-1})}$ $\boldsymbol{h(x_n)\in H^{l+2}}(\mathbb{R})$, $\boldsymbol{k(x',t)\in H^{l,\frac{l}{2}}\left(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1}\right)}$ yadroli issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasi uchun qo‘yilgan to‘g‘ri masala yechimining mavjudligi va yagonaligi o‘rganilgan.

$u(x,t)$, funksiyani $(x,t)\in\mathbb{R}_T^n$ sohada quyidagi tenglamalardan aniqlash masalasini qaraymiz:

$$u_t-a(t)\Delta u=\int_0^t K\,(x,\tau)u(x,t-\tau)d\tau,\quad (x,t)\in\mathbb{R}_T^n, \tag{14}$$

$$u(x,0)=\varphi(x),\qquad x\in\mathbb{R}^n, \tag{15}$$

(14), (15) Koshi masalasining yechimi quyidagi Volterra tipidagi integral tenglamaga ekvivalent bo‘ladi.

$$u(x,t)=\int_{\mathbb{R}^n}\varphi\,(\xi)G(x-\xi;\theta(t))d\xi+\int_0^{\theta(t)}\frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))}\times$$

$$\times\int_{\mathbb{R}^n}\int_0^{\theta^{-1}(\tau)} h\,(\xi_n)k(\xi',\alpha)u(\xi,\theta^{-1}(\tau)-\alpha)G(x-\xi;\theta(t)-\tau)d\alpha d\xi. \tag{16}$$

**3-Lemma.** *Faraz qilaylik,* $\varphi(x)\in H^{l+2}(\mathbb{R}^n)$, $h(x_n)\in H^{l+2}(\mathbb{R}), k(x',t)\in H^{l,l/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1})$ *va* $a(t)\in E$ *bo‘lsin. U holda (16) integral tenglamaning* $H^{l+2,(l+2)/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^{n})$ *sinfga qarashli yagona* $u(x,t)$ *yechimi mavjud.*

Ikkinchi paragrafda o‘zgaruvchan koeffitsiyentli issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasidan ko‘p o‘lchamli yadroni aniqlash masalasi tadqiq qilingan.

$u(x,t)$ funksiyadan funksiya bilan birgalikda (16) integro–differensial tenglamadan $k(x',t)$ funksiyani topish masalasi qaraladi. Buning uchun quyidagi qo‘shimcha shart kiritamiz:

$$u(x',0,t)=f(x',t),\qquad (x',t)\in\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1}. \tag{17}$$

(12), (13), (15) teskari masalaga ekvivalent integral tenglamalar sistemasini olamiz. Buning uchun dastlab berilgan tenglamani $t$ bo‘yicha differensiallab:

$$\vartheta(x,t)=u_t(x,t) \tag{18}$$

belgilash kiritiladi va $\vartheta(x,t)$ funksiyaga nisbatan quyidagi ekvivalent masala olinadi:

$$\vartheta_t-a(t)\Delta\vartheta=(\ln\,a\,(t))'\vartheta(x,t)-(\ln\,a\,(t))'\int_0^t h\,(x_n)k(x',\tau)u(x,t-\tau)d\tau+$$

$$+\int_0^t h\,(x_n)k(x',\tau)\vartheta(x,t-\tau)d\tau+h(x_n)k(x',t)\varphi(x), \tag{19}$$

$$\vartheta|_{t=0}=a(0)\Delta\varphi(x), \tag{20}$$

$$\vartheta|_{x_n=0}=f_t(x',t),\ a(0)\Delta\varphi(x',0)=f_t(x',0). \tag{21}$$

(19), (20) tengliklarni $x_n$ bo'yicha differensiallab yangi ekvivalent masalaga kelinadi:

$$(\vartheta_{x_n})_t - a(t)\Delta\vartheta_{x_n} = (\ln\ a\,(t))'\vartheta_{x_n} - (\ln\ a\,(t))'h'(x_n)\int_0^t k\,(x',\tau) \times$$

$$\times\, u(x,t-\tau)d\tau - (\ln\ a\,(t))'h(x_n)\int_0^t k\,(x',\tau)u_{x_n}(x,t-\tau)d\tau +$$

$$+h'(x_n)\int_0^t k\,(x',\tau)\vartheta(x,t-\tau)d\tau + h(x_n)\int_0^t k\,(x',\tau)\vartheta_{x_n}(x,t-\tau)d\tau +$$

$$+h'(x_n)k(x',t)\varphi(x) + h(x_n)k(x',t)\varphi_{x_n}(x), \qquad (22)$$

$$\vartheta_{x_n}|_{t=0} = a(0)\Delta\varphi_{x_n}(x). \qquad (23)$$

(19), (20) tengliklarni $x_n$ bo'yicha ikki marta differensiallab $\omega(x,t) = \vartheta_{x_n x_n}(x,t)$ belgilash kiritilsa $\omega(x,t)$ funksiyaga nisbatan quyidagi ekvivalent masala hosil qilinadi:

$$\omega_t - a(t)\Delta\omega = (\ln\ a\,(t))'\omega - (\ln\ a\,(t))'h''(x_n)\int_0^t k\,(x',\tau)u(x,t-\tau)d\tau -$$

$$-2(\ln\ a\,(t))'h'(x_n)\int_0^t k\,(x',\tau)u_{x_n}(x,t-\tau)d\tau - (\ln\ a\,(t))'h(x_n)\int_0^t k\,(x',\tau) \times$$

$$\times\, u_{x_n x_n}(x,t-\tau)d\tau + h''(x_n)\int_0^t k\,(x',\tau)\vartheta(x,t-\tau)d\tau +$$

$$+2h'(x_n)\int_0^t k\,(x',\tau)\vartheta_{x_n}(x,t-\tau)d\tau + h(x_n)\int_0^t k\,(x',\tau)\omega(x,t-\tau)d\tau +$$

$$+h''(x_n)k(x',t)\varphi(x) + 2h'(x_n)k(x',t)\varphi_{x_n}(x) +$$

$$+h(x_n)k(x',t)\varphi_{x_n x_n}(x), \qquad (24)$$

$$\omega|_{t=0} = a(0)\Delta\varphi_{x_n x_n}(x). \qquad (25)$$

$\omega(x,t)$ funksiya uchun qo'shimcha shart (19) va (25) dan foydalanib hosil qilingan:

$$\omega|_{x_n=0} = \frac{1}{a(t)}f_{tt} - \sum_{i=1}^{n-1}\frac{\partial^2}{\partial x_i k^2}f_t - \frac{(ln\ a\,(t))'}{a(t)}f_t + \frac{(ln\,a\,(t))'}{a(t)}h''(0) \times$$

$$\times \int_0^t k\,(x',\tau)f(x',t-\tau)d\tau + 2\,\frac{(ln\,a\,(t))'}{a(t)}h'(0)\int_0^t k\,(x',\tau)u_{x_n}(x',t-\tau)d\tau +$$

$$+\frac{(ln\,a\,(t))'}{a(t)}h(0)\int_0^t k\,(x',\tau)u_{x_nx_n}(x',t-\tau)d\tau-\frac{1}{a(t)}h''(0)\int_0^t k\,(x',\tau)\times$$

$$\times f_t(x,t-\tau)d\tau-2\frac{1}{a(t)}h'(0)\int_0^t k\,(x',\tau)\vartheta_{x_n}(x',t-\tau)d\tau-$$

$$-\frac{1}{a(t)}h(0)\int_0^t k\,(x',\tau)f_{tt}(x',t-\tau)d\tau-\frac{1}{a(t)}h''(0)k(x',t)\varphi(x',0)-$$

$$-2\frac{1}{a(t)}h'(0)k(x',t)\varphi_{x_n}(x',0)-\frac{1}{a(t)}h(0)k(x',t)\varphi_{x_nx_n}(x',0). \qquad (26)$$

**4-Lemma.** *Faraz qilaylik* $a(t)\in E$, $\varphi(x)\in H^{l+6}(\mathbb{R}^n)$, $f_t(x',t)\in H^{l+4,(l+4)/2}\left(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1}\right)$, $h(x_n)\in H^{l+2}(\mathbb{R})$ *ushbu sinflardan. Bundan tashqari* $f(x',0)=\varphi(x',0)$, *va* $a(0)\Delta\varphi(x',0)=f_t(x',0)$ *kelishuvchanlik shartlari bajarilsin. U holda (14), (15), (17) teskari masala (18), (19) – (20), (22)–(23) va (24)–(26) masalalardan* $(\vartheta_{x_n}(x,t),u(x,t),\ u_{x_n}(x,t),u_{x_nx_n}(x,t),\vartheta(x,t),\omega(x,t),k(x',t))$ *topish masalasiga ekvivalent.*

Ushbu paragrifning asosiy natijasi sifatida quyidagi mavjudlik va yagonalik teoremasi olingan.

**2-Teorema.** *Faraz qilaylik* $a(t)\in E$, $\varphi(x)\in H^{l+6}(\mathbb{R}^n)$, $f_t(x',t)\in H^{l+4,(l+4)/2}\left(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1}\right)$, $h(x_n)\in H^{l+2}(\mathbb{R})$, $l\in(0,1)$ *funksiyalar sinfiga qarashli bo‘lib,* $\varphi(x',0)=f(x',0)$ *va* $a(0)\Delta\varphi(x',0)=f_t(x',0)$ *kelishuvchanlik shartlari bajarilsin. U holda shunday yetarlicha kichik musbat* $T_0>0$ *soni mavjudki,* $T\in(0,T_0]$ *lar uchun (14),(15),(17) teskari masalaning* $u(x,t)\in H^{l+2,(l+2)/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^n)$, $k(x',t)\in H^{l,l/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1})$ *yagona yechimi mavjud.*

Uchinchi paragrafda o‘zgaruvchan koeffitsiyentli ko‘p o‘lchamli yadroli issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasida integral ostida noma’lum funksiya Laplas operatori orqali berilgan bo‘lib, unga qo‘yilgan teskari masala tadqiq qilingan.

Quyidagi tenglamalardan $u(x,t)$, $k(x',t)$ funksiyalarni aniqlash masalasi ko‘rib chiqilgan:

$$u_t=a(t)\Delta u-\int_0^t k\,(x',t-\tau)a(\tau)\Delta u(x,\tau)d\tau,\quad (x,t)\in\mathbb{R}_T^n, \qquad (27)$$

$$u(x,0)=\varphi(x),\ x\in\mathbb{R}^n, \qquad (28)$$

$$u(x',0,t)=f(x',t),\qquad (x',t)\in\mathbb{R}_T^{n-1}. \qquad (29)$$

bu yerda $a(t)>0$ yetarlicha silliq funksiya.

(27) integro-differensial tenglamani $a(t)\Delta u$ ga nisbatan ikkinchi tur Volterra integral tenglamasi ko‘rinishida yozib olinadi.

$$a(t)\Delta u = \int_0^t k\,(x', t-\tau)a(\tau)\Delta u(x,\tau)d\tau + u_t \qquad (30)$$

Integral tenglamalar nazariyasidan (30) integral tenglamaning yechimi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$u_t - a(t)\Delta u = -\int_0^t r\,(x', t-\tau)u_\tau(x,\tau)d\tau. \qquad (31)$$

(31) tenglamada $r(x',t)$ funksiya $k(x',t)$ funksiyaning rezolventasi, $r(x',t)$ va $k(x',t)$ funksiyalar orasidagi bog‘lanish quyidagi tenglik bilan aniqlanadi:

$$r(x',t) = k(x',t) + \int_0^t k\,(x', t-\tau)r(x',t)d\tau, \quad (x,t) \in \mathbb{R}_T^n. \qquad (32)$$

Endi (31), (28), (29) masaladan $u(x,t)$ va $r(x',t)$ funksiyalarni topish masalasini ko‘rib chiqamiz. Qidirilayotgan funksiyalarni topgandan so‘ng (30) integral tenglamadan $k(x',t)$ funksiyani topish mumkin bo‘ladi.

(31), (28) Koshi masalasida $u(x,t)$ funksiyani $x_n$ bo‘yicha ikki marta differensiallab yangi $\vartheta^{(1)}(x,t)$ funksiyani $\vartheta^{(1)}(x,t) = u_{x_n x_n}(x,t)$ belgilash yordamida kiritib, $\vartheta^{(1)}(x,t)$ funksiyaga nisbatan yordamchi masala olinadi:

$$\vartheta_t^{(1)} - a(t)\Delta\vartheta^{(1)} = -\int_0^t r\,(x', t-\tau)\vartheta_\tau^{(1)}(x,\tau)d\tau, \qquad (33)$$

$$\vartheta^{(1)}(x,0) = \varphi_{x_n x_n}(x). \qquad (34)$$

$$\vartheta^{(1)}(x',0,t) = \frac{1}{a(t)} f_t(x',t) - \sum_{i=1}^{n-1} f_{x_i x_i}(x',t) +$$

$$+\frac{1}{a(t)}\int_0^t r\,(x', t-\tau)f_\tau(x',\tau)d\tau. \qquad (35)$$

(34), (35) shartlardan quyidagi kelichuvchanlik sharti olinadi:

$$\varphi_{x_n x_n}(x',0) = \frac{1}{a(0)} f_t(x',0) - \sum_{i=1}^{n-1} f_{x_i x_i}(x',0). \qquad (36)$$

(32), (35) tengliklarni $t$ bo‘yicha differensiallab, $\vartheta^{(2)}(x,t) := \vartheta_t^{(1)}(x,t)$ va $h(x',t) := r_t(x',t)$ belgilash kiritilsa $\vartheta^{(2)}(x,t)$ funksiyaga nisbatan ekvivalent masalaga kelinadi:

$$\vartheta_t^{(2)} - a(t)\Delta\vartheta^{(2)} = a'(t)\Delta\vartheta^{(1)} - r(x',0)\vartheta^{(2)} -$$

$$-\int_0^t h\,(x', t-\tau)\vartheta^{(2)}(x,\tau)d\tau, \qquad (37)$$

$$\vartheta^{(2)}(x,0)=a(0)\Delta\varphi_{x_nx_n}(x), \tag{38}$$

$$\vartheta^{(2)}(x',0,t)=-\frac{a'(t)}{a^2(t)}f_t(x',t)+\frac{1}{a(t)}f_{tt}(x',t)-\sum_{i=1}^{n-1}f_{tx_ix_i}(x',t)-$$

$$-\frac{a'(t)}{a^2(t)}\int_0^t r\,(x',t-\tau)f_\tau(x',\tau)d\tau+\frac{1}{a(t)}\int_0^t h\,(x',\tau)f_\tau(x',t-\tau)d\tau+$$

$$+\frac{1}{a(t)}r(x',0)f_t(x',t). \tag{39}$$

(37), (39) tengliklarni $t$ bo‘yicha differensiallab $\vartheta(x,t):=\vartheta_t^{(2)}(x,t)$ belgilash kiritilsa, $\vartheta(x,t)$ funksiyaga nisbatan ekvivalent masalaga kelinadi:

$$\vartheta_t-a(t)\Delta\vartheta=2a'(t)\Delta\vartheta^{(2)}+a''(t)\Delta\vartheta^{(1)}-r(x',0)\vartheta-$$

$$-h(x',t)a(0)\Delta\varphi_{x_nx_n}(x)-\int_0^t h\,(x',\tau)\vartheta(x,t-\tau)d\tau, \tag{40}$$

$$\vartheta(x,0)=\Psi(x), \tag{41}$$

$$\vartheta(x',0,t)=F(x',t)+\left(2\frac{(a'(t))^2}{a^3(t)}-\frac{a''(t)}{a^2(t)}\right)\int_0^t r\,(x',t-\tau)f_\tau(x',\tau)d\tau-$$

$$-2\frac{a'(t)}{a^2(t)}\int_0^t h\,(x',\tau)f_\tau(x',t-\tau)d\tau-\frac{1}{a(t)}\int_0^t h\,(x',\tau)f_{tt}(x',t-\tau)d\tau+$$

$$+\frac{1}{a(t)}h(x',t)f_t(x',0), \tag{42}$$

bu yerda

$$\Psi(x)=a^2(0)\Delta^2\varphi_{x_nx_n}(x)+a'(0)\Delta\varphi_{x_nx_n}(x)-r(x',0)a(0)\Delta\varphi_{x_nx_n}(x),$$

$$F(x',t)=\left(-\frac{a''(t)}{a^2(t)}+2\frac{(a'(t))^2}{a^3(t)}\right)f_t(x',t)+\frac{1}{a(t)}f_{ttt}(x',t)-\sum_{i=1}^{n-1}f_{ttx_ix_i}(x',t)-$$

$$-2\frac{a'(t)}{a^2(t)}r(x',0)f_t(x',t)+\frac{1}{a(t)}r(x',0)f_{tt}(x',t)-2\frac{a'(t)}{a^2(t)}f_{tt}(x',t).$$

**5-Lemma.** *(27)– (29) teskari masala (37), (38) va (40)–(42) masalalardan* $\vartheta^{(2)}(x,t),\vartheta(x,t),h(x',t),r(x,'t)$ *funksiyalarni aniqlash masalasiga ekvivakent.*

Ushbu paragrafning asosiy natijasi sifatida quyidagi mavjudlik va yagonalik teoremasi keltirilgan:

**3-Teorema.** *Faraz qilaylik* $a(t)>0$ yetarlicha silliq funksiya, $\varphi(x)\in H^{l+8}(\mathbb{R}^n)$, $f(x',t)\in H^{l+6,(l+6)/2}(\bar{\mathbb{R}}_T^{n-1})$ funksiyalar sinfiga qarashli bo‘lib, $f(x',0)=\varphi(x',0)$ *va* $\varphi_{x_nx_n}(x',0)=\frac{1}{a(0)}f_t(x',0)-\sum_{i=1}^{n-1}f_{x_ix_i}(x',0)$. *kelishuvchanlik shartlari, hamda* $|f_t(x',0)|>f_0=const>0$ *bo‘lsin. U holda* *shunday yetarlicha kichik musbat $T_0 > 0$ soni mavjudki, $T \in (0, T_0]$ lar uchun (31), (28), (29) teskari masalaning $u(x,t) \in H^{l+2,(l+2)/2}\left(\overline{\mathbb{R}}_T^n\right)$, $h(x',t) \in H^{l,l/2}\left(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1}\right)$, $l \in (0,1)$sinflarga tegishli yagona yechimi mavjud.*

Uchinchi bob **"Parabolik tipdagi integro–differensial tenglama uchun teskari masalalar"** deb nomlanib, tenglamadagi yadro $L = \Delta + c(x)$ differensial operator bilan o'rama shaklda berilgan.

Bu bobning birinchi va ikkinchi paragraflarida quyidagi masala qaralgan: $u(x,t)$ va $k(x',t)$ funksiyalarni $(x,t) \in \mathbb{R}_T^n$ sohada quyidagi berilgan tenglamalardan aniqlash masalasini ko'rib chiqamiz:

$$u_t - Lu = -\int_0^t k\,(x',\tau)Lu(x,t-\tau)d\tau, \quad (x,t) \in \mathbb{R}_T^n, \tag{43}$$

$$u|_{t=0} = \varphi(x), \quad x \in \mathbb{R}^n, \tag{44}$$

$$u|_{x_n=0} = f(x',t), \qquad (x',t) \in \mathbb{R}_T^{n-1}. \tag{45}$$

Quyidagi lemma o'rinli.

**6-Lemma.** *Faraz qilaylik $k(x',t) \in H^{l+2,(l+2)/2}\left(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1}\right)$ bo'lsin. U holda (41)–(43) masala yechimi*

$$u_t(x,t) = Lu - \int_0^t r\,(x',t-\tau)u_\tau(x,\tau)d\tau, \tag{46}$$

*integral tenglama, hamda (44), (45) boshlang'ich va qo'shimcha shartlardan $u(x,t)$ va $r(x',t)$ funksiyalarni topish masalasiga ekvivalent. Bu yerda $r(x',t)$ funksiya $k(x',t)$ funksiyaning rezolventasi va ular quyidagi integral tenglama bilan bog'langan*:

$$k(x',t) = r(x',t) - \int_0^t r\,(x',t-\tau)k(x',\tau)d\tau. \tag{47}$$

**7-Lemma.** *Quyidagi tenglamalardan*

$$\vartheta_t - L\vartheta - 2c_{x_n}\vartheta_{x_n}^{(2)} - c_{x_n x_n}\vartheta^{(2)} + r(x',0)\vartheta + h(x',t)[L\varphi_{x_n x_n}(x) +$$
$$+2c_{x_n}\varphi_{x_n}(x) + c_{x_n x_n}\varphi(x)] + \int_0^t h\,(x',t-\tau)\vartheta(x,\tau)d\tau = 0 \tag{48}$$

$$\vartheta|_{t=0} = Y_{x_n x_n}(x) \tag{49}$$

$$\vartheta(x',0,t) = f_{ttt}(x',t) - \Delta_{x'}f_{tt}(x',t) - c(x',0)f_{tt}(x',t) +$$
$$+r(x',0)f_{tt}(x',t) + h(x',t)L\varphi|_{x_n=0} + \int_0^t f_{tt}\,(x',t-\tau)h(x',\tau)d\tau. \tag{50}$$

*bu yerda*

$$\vartheta(x,t) = u_{ttx_n x_n}(x,t), \quad \vartheta^{(2)} = u_{tt},$$

$$\triangle_{x'} = \sum_{i=1}^{n-1} \frac{\partial^2}{\partial x_i^2}, \quad Y_{x_n x_n}(x) = \frac{\partial^2}{\partial x_n^2}\left(L^2\varphi(x) - r(x',0)L\varphi(x)\right)$$

$$r(x',0) = \frac{L^2\varphi(x',0) - f_{tt}(x'0)}{L\varphi(x',0)}. \qquad (51)$$

*$\vartheta(x,t), h(x',t)$ funksiyalarni topish masalasi $(46), (44), (45)$ masalaga ekvivalent.*

Ushbu paragrafda quyidagi mavjudlik va yagonalik teoremasi isbotlangan.

**4-Teorema.** *Faraz qilaylik, $\varphi(x) \in H^{l+8}(\mathbb{R}^n)$, $|L\varphi(x',0)|^l \geq const > 0$, $c(x) \in H^{l+4}(\mathbb{R}^n)$, $f(x',t) \in H^{l+6,(l+6)/2}\left(\overline{\mathbb{R}}_T^{n-1}\right)$, $l \in (0,1)$ va $f(x',0) = \varphi(x',0)$, $f_t(x',0) = L\varphi(x',0)$ kelishuvchanlik shartlari bajarilsin. U holda shunday yetarlicha kichik musbat $T_0 > 0$ soni mavjudki, $T \in (0, T_0]$ lar uchun (46), (44), (45) teskari masalaning $u(x,t) \in H^{l+2,(l+2)/2}\left(\overline{\mathbb{R}}_T^n\right)$, $h(x',t) \in H^{l,l/2}\left(\overline{\mathbb{R}}_T^n\right)$ sinflarga qarashli yagona yechimi mavjud.*

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida o‘zgaruvchan koeffitsiyentli parabolik tipdagi integro–differensial tenglama maxsus ko‘rinishdagi

$$k(x,t) = \sum_{i=0}^{N} c_i\,(x) b_i(t)$$

yadrosining yagonaligi o‘rganilgan.

Bir o‘lchamli issiqlik o‘tkazuvchanlik integro–differensial tenglamasi uchun Koshi masalasini qaraymiz.

$$u_t - a(t)u_{xx} = \int_0^t k\,(x, t-\tau) u(x,y,\tau) d\tau, \quad (x,y) \in \mathbb{R}^2, t \in (0,T], \qquad (52)$$

$$u|_{t=0} = \varphi(x,y), \qquad (x,y) \in \mathbb{R}^2, \qquad (53)$$

bu yerda $T > 0$-tayinlangan o‘zgarmas son, $y \in \mathbb{R}$ parametr va $a(t) > 0$ yetarlicha silliq funksiya. Teskari masala (52), (53) to‘g‘ri masala yechimi haqida

$$u|_{x=y} = f(y,t), \qquad (y,t) \in \mathbb{R} \times [0,T] \qquad (54)$$

qo‘shimcha shart bo‘yicha $k(x,t)$, $x \in \mathbb{R}$, $t > 0$ funksiyani aniqlashdan iborat. Bu yerda barcha $y \in \mathbb{R}$ va $t \in [0,T]$ larda $f(y,t)$ – berilgan funksiya.

Faraz qilaylik, $k(x,t)$ va uning $k_x$, $k_t$ hosilalari ixtiyoriy $T > 0$ da $B(D_T), [D_T := \{(x,t): x \in \mathbb{R}; 0 \leq t \leq T\}]$ sinfga qarashli, $\varphi(x;y) \in B^4(\mathbb{R}^2)$, $B^4(\mathbb{R}^2)$- $\mathbb{R}^2$ da to‘rtinchi tartibli hosilasi bilan chegaralangan, uzluksiz funksiyalar sinfi.

Ushbu paragrafning asosiy natijasi quyidagi yagonalik teoremasidan iborat.

**5-Teorema.** *Faraz qilaylik, $\varphi(x,y) \in B^4(\mathbb{R}^2)$, $\{f(y,t), f_t(y,t), f_{tt}(y,t), f_{tyy}(y,t)\} \in B(D_T)$ bo‘lib, $\inf_{(x,y)\in\mathbb{R}^2} |\varphi(x,y)| \geq \beta_0 > 0$, bo‘lsin, bu yerda $\beta_0$ –ma’lum son. U holda, (52)-(54) teskari masalaning*

$$k(x,t)=\sum_{i=0}^{N} c_i\,(x) b_i(t), \quad c_i(x)\in B^2(\mathbb{R}^2),\, b_i(t)\in C^1([0,T])$$

*ko'rinishga ega yechimi $D_T$ sohada bir qiymatli aniqlangan.*

## XULOSA

Dissertatsiyada o'zgaruvchan koeffitsiyentli parabolik tipdagi integro–differensial tenglamalarda integral hadning yadrosini aniqlash uchun ko'p o'lchamli teskari masalalarning yechimi mavjudliga va yagonaligi o'rganilgan. Integro–differensial tenglamalarni ikkinchi tur Volterra tipidagi tenglamalar sistemasiga keltirib tadqiq qilingan. O'rama ko'rinishdagi o'ng tomonida integral operator bo'lgan parabolik integro–differensial tenglamalarning keng sinfni uchun teskari masalalar ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo'yilgan Koshi masalasi yechimining mavjudligi ko'rsatilgan;

to'g'ri masala yechimiga qo'yilgan qo'shimcha shartdan foydalanib, ko'p o'lchamli yadroni Gyolder (Hölder) fazolarida bir qiymatli yechiluvchanligini isbotlangan;

issiqlik tarqalish integro–differensial tenglamasidan ko'p o'lchamli ajralgan yadroni aniqlash masalasining bir qiymatli yechiluvchanligini Gyolder (Hölder) fazolarida ko'rsatilgan;

o'zgaruvchan koeffitsiyentli integro–differensial issiqlik tarqalish tenglamasidan maxsus ko'rinishga ega ko'p o'lchamli yadroni aniqlash teskari masalasi yechimining yagonaligi ko'rsatilgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREE**
**PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 URGENCH STATE UNIVERSITY**

---

**BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**NURIDDINOV JAVLON ZAFAROVICH**

# INVERSE PROBLEMS FOR AN INTEGRO-DIFFERENTIAL HEAT EQUATION WITH AN INTEGRAL TERM OF CONVOLUTION TYPE

**01.01.02–Differential Equations and Mathematical Physics**

**ABSTRACT OF DISSERTATION**
**for the doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences**

**Bukhara - 2021**

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number **B2019.4.PhD/FM433**.

The dissertation was performed at the Bukhara branch of the Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan and Bukhara State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (uzbek, English, russian (resume)) on the website (www.ik-mat.urdu.uz) and the «Ziyonet» Information and educational portal (www.ziyonet.uz).

| | |
|---|---|
| **Scientific supervisor:** | **Durdiev Durdimurod Kalandarovich**<br>Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor |
| **Official opponents:** | **Khasanov Aknazar Bekdurdiyevich**<br>Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor |
| | **Djamalov Sirojiddin Zuxriddinovich**<br>Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor |
| **Leading organization:** | **National University of Uzbekistan** |

Defense will take place «06» 09 2020 at 14^00 at the meeting of Scientific Council number PhD.03/30.12.2019.FM.55.02 at Urgench State University. (Address: 14 Kh. Olimjan str., Urgench city, 220100, Uzbekistan, Ph.: (+99862) 224-66-11, fax: (+99862)224-67-00, e-mail: ik_mat.urdu@umail.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource centre at Urgench State University (is registered №D-265) (Address: 14 Kh. Olimjan str., Urgench city, 220100, Uzbekistan, Ph.: (99862)224-66-11, fax: (99862)224-67-00), ursubox@gmail.com).

Abstract of dissertation sent out on «20» 09 2021 year
(Mailing report № 1 on 20.09 may 2021 year)

**B.I.Abdullaev**
Chairman of scientific council on award of scientific degree, Dr.ph.m.s.

**A.A.Atamurotov**
Scientific secretary of scientific council on award of scientific degree, C.ph.m.s.

**S.A.Imomkulov**
Chairman of scientific Seminar under Scientific Council on award of scientific degree, Dr.ph.m.s.

## INTRODUCTION (Doctor of Philosophy (PhD) dissertation annotation)

**Actuality and demand of the theme of dissertation.** Many scientific and applied studies around the world lead to the study of special derivative differential and integro-differential equations, the correct and inverse problems for them. Inverse problems pervaded astronomy, quantum propagation theory, geophysics, thermal physics, medicine, and all areas of modern science with the advent of computers. In order to solve the right problems in mathematical physics, it is necessary to give the coefficients of the equation, the boundary of the field, the initial and boundary conditions. But in practice, it is not always possible to give the coefficients of the equation. It is not always possible to define the initial and boundary conditions, as well as the boundaries of the field, in practical matters. In such cases, it is necessary to search for the solution of the inverse problem by entering additional information about the direct problem, that is, to find the coefficients, integral terms in the form of integro-differential equations, initial or boundary conditions, field boundaries. Due to the incompleteness of methods for solving such problems, one of the most important tasks is to solve the inverse problem of determining the kernel from the integro-differential thermal conductivity equation.

Today, the world's fastest-growing field of Mathematical Physics is the study of inverse problems. This field has become one of the most important mathematical problems in physics and engineering. The wide application of this problem has attracted the attention of many scientists due to the novelty and complexity of its theory. In recent years, the management of heat conductivity processes has been developing rapidly, as the thermal conductivity and relaxation function of each medium are different, and these magnitudes are closely related to the initial state and properties of the medium. Therefore, for integro-differential thermal conductivity equations, the study of initial, initial-boundary value problems, and their inverse problems is a targeted research.

